O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Namangan davlat pedagogika instituti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektor _____ M.R. Qodirxonov
“ 27 ” 11 2026-yil

2027-YIL UCHUN OLIY TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIM DOKTORANTURA (DSc), TAYANCH DOKTORANTURA (PhD) va MAQSADLI TAYANCH DOKTORANTURA (PhD)ga TALABGORLARNI MUTAXASSISLIK FANIDAN IMTIHON O‘TKAZISH

TARTIBI VA BAHOLASH MEZONLARI

Namangan – 2026

KIRISH

2027-yil uchun Namangan davlat pedagogika institutiga Oliy ta’limdankeyingi ta’lim doktorantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda maqsadli tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchi talabgorlarning mutaxassislik fani bo‘yicha bilim darajasi, ilmiy-nazariy tayyorgarligi, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishi bo‘yicha tadqiqot olib borishga tayyorgarligini aniqlash maqsadida mutaxassislik fanidan kirish imtihonlari tashkil etiladi.

Mutaxassislik fanidan imtihon talabgorlarning nazariy bilimlari, ilmiy tushunchalarni tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni taqqoslash, pedagogik va ilmiy muammolarga mustaqil yondashish hamda o‘z fikrlarini ilmiy dalillar asosida bayon etish ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi.

Imtihon jarayoni belgilangan tartib va baholash mezonlari asosida ikki bosqichda amalga oshiriladi. Har ikki bosqich natijalari umumlashtirilib, talabgorning mutaxassislik fani bo‘yicha yakuniy natijasi aniqlanadi.

Mutaxassislik fanidan imtihonning umumiy maksimal natijasi 100 ballni tashkil etadi:

1-bosqich – Mutaxassislik fanidan suhbat – 50 ball.

Mazkur bosqichda talabgorlarning mutaxassislik faniga oid nazariy bilimlari, ilmiy-nazariy qarashlarni tushunishi, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati, shuningdek, olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan bilim va tasavvurlari baholanadi.

2-bosqich – Mutaxassislik fanidan yozma ish – 50 ball.

Ushbu bosqichda talabgorlarning mutaxassislik faniga oid bilimlarni yozma ravishda izchil, mantiqiy va ilmiy asoslangan holda bayon etish qobiliyati, nazariy ma’lumotlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash hamda tegishli ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari baholanadi.

Har bir bosqich bo‘yicha talabgorlarning bilim va ko‘nikmalari belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi. Baholash jarayonida javoblarning ilmiy jihatdan to‘g‘riligi, mazmunan to‘liqligi, mantiqiy izchilligi, dalillarning asoslanganligi, mustaqil fikr va xulosalarning mavjudligi inobatga olinadi.

Talabgorlarning yakuniy natijasi suhbat va yozma ish bosqichlarida to‘plangan ballarni o‘zaro qo‘shish orqali aniqlanadi. Tanlovda talabgorlar tomonidan to‘plangan umumiy ballar asosiy mezon sifatida olinadi hamda saralash natijalari ballar ketma-ketligi, ya’ni yuqori natijadan past natijaga qarab shakllantiriladi.

Namangan davlat pedagogika institutida 2027-yil uchun doktorantura (DSc) tayanch doktorantura (PhD), maqsadli-tayanch doktorantura (PhDga kirish uchun imtihonni birinchi bosqichi - SUHBAT o‘tkazish

GRAFIGI

Eslatma: har bir talabgor imtihon vaqtidan 10–20 daqiqa oldin belgilangan joyga shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID karta) bilan kelishlari so‘raladi.

Talabgorlar reja-grafik asosida belgilangan kunda o‘z vaqtida ishtirok etishlari lozim *(belgilangan vaqtda imtihon jarayonlarida ishtirok etmagan talabgorlarga qayta imtihon topshirishlariga ruhsat berilmaydi).*

Suhbatga talabgorlar o‘zlari bilan quyidagi hujjatlarni olib kelishlari lozim:

1) shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari (passport yoki ID karta), obyektivka nusxalari,

2) ilmiy mavzuga oid chop etilgan ilmiy ishlar nusxalari hamda doktorantura (DSc)ga talabgorlar uchun Dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi (hujjatlarni yig‘ma fayl papkaga solish tavsiya etiladi).

№	Ixtisoslik shifri nomi	Ta’lim turi	Imtihon topshirish sanasi va boshlanish vaqti	Imtihon topshirish manzili
1.	07.00.01 – O‘zbekiston tarixi	Doktorantura (DSc) Tayanch doktorantura (PhD)	19.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
2.	09.00.04 – Ijtimoiy falsafa	Tayanch doktorantura (PhD)	19.11.2026 Soat: 14:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
3.	10.00.01 – O‘zbek tili	Tayanch doktorantura (PhD)	20.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
4.	10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti	Tayanch doktorantura (PhD)	20.11.2026 Soat: 14:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
5.	13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi	Tayanch doktorantura (PhD)	20.11.2026 Soat: 15:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi

6.	13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi	Tayanch doktorantura (PhD)	21.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
7.	13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi	Tayanch doktorantura (PhD)	23.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
8.	19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya	Tayanch doktorantura (PhD)	23.11.2026 Soat: 14:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
9.	13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)	Doktorantura (DSc)	24.11.2026 **“A”** guruh Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Axborot resurs markazi 2-qavat Konferensiyalar xonasi
		Tayanch doktorantura (PhD)	25.11.2026 **“B”** guruh Soat: 09:00	
			26.11.2026 **“D”** guruh Soat: 09:00	

Namangan davlat pedagogika institutida 2026-yil uchun tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun imtihonni ikkinchi bosqichi – YOZMA IMTIHON o‘tkazish

GRAFIGI

Eslatma: har bir talabgor imtihon vaqtidan 20–30 daqiqa oldin belgilangan joyga shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID karta) bilan kelishlari so‘raladi.

Talabgorlar reja-grafik asosida belgilangan kunda o‘z vaqtida ishtirok etishlari lozim (belgilangan vaqtdan kechikib kelgan talabgorlar imtihon jarayonlarida ishtirok etishlariga ruhsat berilmaydi).

№	Ixtisoslik shifri nomi	Ta’lim turi	Imtihon topshirish sanasi va boshlanish vaqti	Imtihon topshirish manzili
1.	07.00.01 – O‘zbekiston tarixi	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
2.	09.00.04 – Ijtimoiy falsafa	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
3.	10.00.01 – O‘zbek tili	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
4.	10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
5.	13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)

6.	13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
7.	13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
8.	19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Abdurashid Munavvarov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (B zal)
9.	13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)	Tayanch doktorantura (PhD)	27.11.2026 Soat: 09:00	Namangan shahar, Uychi ko‘chasi 316-uy. Namangan davlat pedagogika instituti Mufatxon Mamatov nomidagi ilmiy-pedagogik maktabi xonasi (A zal)

1. SUHBAT BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI: MAKSIMAL – 50 BALL

Talabgolar bilimini suhbat ko‘rinishda baholash uchun 3ta savoldan iborat ko‘p variantli biletlar tuziladi. 1- va 2-savollar mutaxassislik bo‘yicha nazariy-metodologik savollar bo‘lib, har bir savol uchun tegishli 15 balldan qo‘yiladi. 1- va 2-savollar bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan ball maksimal 30 ball. Birinchi va ikkinchi savollarga javoblar qo‘yidagi baxolash mezonlari asosida amalga oshriladi:

1-savol (mak-15)	2-savol (mak-15)	Mezon talablari
13 – 15 ball	**13 – 15 ball**	Savol mazmunini to‘liq va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ochib bersa, asosiy tushuncha va nazariyalarni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniq izohlasa, ilmiy yondashuvlarni tahlil qilsa va taqqoslasa, fikrlarini tegishli dalillar yoki misollar bilan asoslasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lasa, mustaqil mulohaza yuritib, asoslangan xulosa chiqarsa hamda javobini mantiqiy izchillikda bayon etib, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llasa.
10–12 ball	**10–12 ball**	Savolning asosiy mazmunini to‘g‘ri ochib bersa, tushuncha va nazariyalarni asosan to‘g‘ri izohlasa, biroq ayrim muhim jihatlar yoki o‘zaro bog‘liqliklarni to‘liq yoritmasa, tahlil, dalil va mavzuga mos amaliy misollar keltirsa, ammo ularning asoslanishida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, mustaqil fikr yuritib, mantiqiy xulosa bildirsa hamda ayrim xatolar javobning asosiy mazmunini buzmasa.
6–9 ball	**6–9 ball**	Savol mazmunini qisman ochib bersa, asosiy tushunchalarning ayrimlarini to‘g‘ri izohlasa, biroq muhim ma’lumotlarni tushirib qoldirsa yoki ayrim mazmuniy xatolarga yo‘l qo‘ysa, javobi asosan ma’lumotlarni takrorlashdan iborat bo‘lib, tahlil va dalillash yetarli bo‘lmasa, amaliy misollar keltirsa-da, ularning nazariya bilan bog‘liqligi zaif bo‘lsa, mustaqil mulohaza yuritib, qisman asoslangan xulosalar chiqarsa.
1–5 ball	**1–5 ball**	Mavzuga oid ayrim to‘g‘ri ma’lumotlarni keltirsa, biroq savolning asosiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmasa, muhim tushuncha va nazariyalarni chalkashtirsa, dalillar va misollar yetarli bo‘lmasa yoki mavzuga mos kelmasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelsa hamda mustaqil xulosalari asoslanmagan yoki mavjud bo‘lmasa.
0 ball	**0 ball**	Javob yozilmagan bo‘lsa yoki matnda savolga daxldor, to‘g‘ri va baholash mumkin bo‘lgan mazmun mavjud bo‘lmasa.

3-savol talabgorning olib borayotgan yoki rejalashtirgan ilmiy-tadqiqot ishiga doir bo‘lib, unda talabgor mavzuni dolzarbligini asoslashi, qo‘llaniladigan pedagogik usullarni izohlashi va kutilayotgan natija va samaradorlikni ilmiy asosda bayon qilib berishi lozim. Uchinchi savol uchun javob maksimal 20 ball bilan baholanadi:

3-savol (mak-20)	Mezon talablari
16–20 ball	Tadqiqot mavzusining dolzarbligini aniq pedagogik muammo, ta’lim amaliyoti ehtiyoji hamda mavjud tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilmagan jihatlar bilan asoslasa, tadqiqot maqsadi va vazifalarini o‘zaro muvofiq ifodalasa, pedagogik yondashuvlar hamda tadqiqot metodlarini asosli tanlab, ularni qo‘llash tartibini tushuntirsa, kutilayotgan ilmiy yangilik va amaliy natijalarni aniq bayon qilsa, samaradorlikni o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish usullari orqali baholashni izohlasa, mustaqil ilmiy mulohaza yuritib, tadqiqotning imkoniyatlari va cheklovlarini anglasa hamda qo‘shimcha savollarga asoslangan javob bersa.
11–15 ball	Mavzuning dolzarbligi va asosiy pedagogik muammoni tushuntirsa, biroq o‘rganilmagan jihatlarni yoki ularni tasdiqlovchi dalillarni to‘liq ochib bera olmasa, tadqiqot maqsadi va vazifalarini asosan muvofiq ifodalasa, pedagogik yondashuvlar va tadqiqot metodlarini to‘g‘ri ko‘rsatsa, ammo ularni tanlash sababi yoki qo‘llash tartibini qisman asoslasa, kutilayotgan ilmiy yangilik va amaliy natijalarni bayon qilsa-da, samaradorlik ko‘rsatkichlari yoki baholash tartibini yetarlicha aniq izohlay olmasa, mustaqil mulohaza yuritsa, biroq ayrim xulosalari qo‘shimcha asoslashni talab qilsa.
6–10 ball	Mavzuning dolzarbligini umumiy fikrlar bilan izohlasa, biroq aniq ilmiy muammo va o‘rganilmagan jihatlarni ajratishda qiynalsa, tadqiqot maqsadi va vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni qisman ochib bersa, pedagogik usullar yoki tadqiqot metodlarini sanab o‘tsa-da, ularning tadqiqotga mosligi va qo‘llash tartibini asoslay olmasa, kutilayotgan natijalarni umumiy bayon qilsa, ilmiy yangilik va samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlarini aniq belgilay olmasa hamda qo‘shimcha savollarga qisman javob bersa.
1–5 ball	Tadqiqot mavzusi yoki g‘oyasini bayon qilsa, biroq uning dolzarbligi, ilmiy muammosi va maqsadini izchil asoslay olmasa, pedagogik yondashuvlar va tadqiqot metodlarini chalkashtirsa yoki mavzuga mos bo‘lmagan usullarni keltirsa, kutilayotgan natijalarni ilmiy asoslash hamda ularning samaradorligini baholash yo‘lini tushuntirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelsa, mustaqil mulohaza yuritishi va asoslangan xulosalar chiqarishi cheklangan bo‘lsa.
0 ball	Olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan tadqiqoti yuzasidan mazmunli javob bermasa, tadqiqot g‘oyasi, muammosi, maqsadi, metodlari va kutilayotgan natijalarini tushuntirib bera olmasa.

2. YOZMA ISH BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI: MAKSIMAL – 50 BALL

Talabgolar bilimini yozma ish ko‘rinishda baholash uchun 3ta savoldan iborat ko‘p variantli biletlar tuziladi. Har bir savol uchun tegishli ballar qo‘yiladi. Birinchi va ikkinchi savollarga javoblar 15 balldan, uchinchi savol uchun javob 20 ball bilan baholanadi**:**

1-savol - maksimal 20 ball	2-savol - maksimal 15 ball	3-savol - maksimal 15 ball	Mezon talablari
17–20	**13–15**	**13–15**	Savol mazmunini to‘liq va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ochib bersa, asosiy tushuncha va nazariyalarni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniq izohlasa, ilmiy yondashuvlarni tahlil qilsa va taqqoslasa, fikrlarini tegishli dalillar yoki misollar bilan asoslasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lasa, mustaqil mulohaza yuritib, asoslangan xulosa chiqarsa hamda javobini mantiqiy izchillikda bayon etib, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llasa.
13–16	**10–12**	**10–12**	Savolning asosiy mazmunini to‘g‘ri ochib bersa, tushuncha va nazariyalarni asosan to‘g‘ri izohlasa, biroq ayrim muhim jihatlar yoki o‘zaro bog‘liqliklarni to‘liq yoritmasa, tahlil, dalil va mavzuga mos amaliy misollar keltirsa, ammo ularning asoslanishida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, mustaqil fikr yuritib, mantiqiy xulosa bildirsa hamda ayrim xatolar javobning asosiy mazmunini buzmasa.
8–12	**6–9**	**6–9**	Savol mazmunini qisman ochib bersa, asosiy tushunchalarning ayrimlarini to‘g‘ri izohlasa, biroq muhim ma’lumotlarni tushirib qoldirsa yoki ayrim mazmuniy xatolarga yo‘l qo‘ysa, javobi asosan ma’lumotlarni takrorlashdan iborat bo‘lib, tahlil va dalillash yetarli bo‘lmasa, amaliy misollar keltirsa-da, ularning nazariya bilan bog‘liqligi zaif bo‘lsa, mustaqil mulohaza yuritib, qisman asoslangan xulosalar chiqarsa.
1–7	**1–5**	**1–5**	Mavzuga oid ayrim to‘g‘ri ma’lumotlarni keltirsa, biroq savolning asosiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmasa, muhim tushuncha va nazariyalarni chalkashtirsa, dalillar va misollar yetarli bo‘lmasa yoki mavzuga mos kelmasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelsa hamda mustaqil xulosalari asoslanmagan yoki mavjud bo‘lmasa.
0	**0**	**0**	Javob yozilmagan bo‘lsa yoki matnda savolga daxldor, to‘g‘ri va baholash mumkin bo‘lgan mazmun mavjud bo‘lmasa.

3. NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAHSLAR UCHUN MUTAXASSISLIK BO`YICHA SUHBAT (KO‘ZI OJIZLAR UCHUN) VA YOZMA ISH (ESHITISH YOKI NUTQIDA NUQSONI BORLAR UCHUN) IMTIHONINI BAHOLASH MEZONLARI: MAKSIMAL – 100 BALL

Ushbu toifadagi talabgorlarga 4 ta savoldan iborat bilet tayyorlanadi. Har-bir savolga maksimal 25 ball qo‘yiladi va quyidagi mezonda baholanadi:

4-savol (maks – 25 ball)	**Mezon uchun talablar**
20 – 25 ball	Savol mazmunini to‘liq va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ochib bersa, asosiy tushuncha va nazariyalarni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniq izohlasa, ilmiy yondashuvlarni tahlil qilsa va taqqoslasa, fikrlarini tegishli dalillar yoki misollar bilan asoslasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lasa, mustaqil mulohaza yuritib, asoslangan xulosa chiqarsa hamda javobini mantiqiy izchillikda bayon etib, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llasa.
14 – 19 ball	Savolning asosiy mazmunini to‘g‘ri ochib bersa, tushuncha va nazariyalarni asosan to‘g‘ri izohlasa, biroq ayrim muhim jihatlar yoki o‘zaro bog‘liqliklarni to‘liq yoritmasa, tahlil, dalil va mavzuga mos amaliy misollar keltirsa, ammo ularning asoslanishida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, mustaqil fikr yuritib, mantiqiy xulosa bildirsa hamda ayrim xatolar javobning asosiy mazmunini buzmasa.
9 – 13 ball	Savol mazmunini qisman ochib bersa, asosiy tushunchalarning ayrimlarini to‘g‘ri izohlasa, biroq muhim ma’lumotlarni tushirib qoldirsa yoki ayrim mazmuniy xatolarga yo‘l qo‘ysa, javobi asosan ma’lumotlarni takrorlashdan iborat bo‘lib, tahlil va dalillash yetarli bo‘lmasa, amaliy misollar keltirsa-da, ularning nazariya bilan bog‘liqligi zaif bo‘lsa, mustaqil mulohaza yuritib, qisman asoslangan xulosalar chiqarsa.
1-8 ball	Mavzuga oid ayrim to‘g‘ri ma’lumotlarni keltirsa, biroq savolning asosiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmasa, muhim tushuncha va nazariyalarni chalkashtirsa, dalillar va misollar yetarli bo‘lmasa yoki mavzuga mos kelmasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelsa hamda mustaqil xulosalari asoslanmagan yoki mavjud bo‘lmasa.
0 ball	Javob yozilmagan bo‘lsa yoki matnda savolga daxldor, to‘g‘ri va baholash mumkin bo‘lgan mazmun mavjud bo‘lmasa.

4. DOKTORATURA (DSc)ga TALABGORLAR UCHUN SUHBAT BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI: MAKSIMAL – 100 BALL

Doktorantura (DSc)ga talabgorlar uchun 5 ta savoldan iborat bilet shakllantiriladi.

1-2-3-savollar – talabgor hujjat topshirgan ixtisoslikning nazariy va amaliy asoslari, fundamental tushunchalari, ilmiy-nazariy yondashuvlari hamda ixtisoslik doirasidagi dolzarb muammolarga oid bo‘ladi.

4-savol – talabgor hujjat topshirgan ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot tamoyillari, metodlari va ilmiy izlanishlarni tashkil etish masalalariga oid bo‘ladi.

5-savol – talabgorning olib borayotgan yoki rejalashtirgan ilmiy-tadqiqot ishi mazmuniga oid bo‘ladi. Bunda talabgor tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab berishi, tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan metod va pedagogik yondashuvlarni izohlashi, shuningdek, kutilayotgan ilmiy natijalar hamda ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bayon qilishi lozim.

Har-bir savolga maksimal 20 ball qo‘yiladi va quyidagi mezonda baholanadi:

5-savol (mak-20)	**Mezon talablari**
16 – 20 ball	Savol mazmunini to‘liq va ilmiy jihatdan to‘g‘ri ochib bersa, asosiy tushuncha va nazariyalarni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniq izohlasa, ilmiy yondashuvlarni tahlil qilsa va taqqoslasa, fikrlarini tegishli dalillar yoki misollar bilan asoslasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lasa, mustaqil mulohaza yuritib, asoslangan xulosa chiqarsa hamda javobini mantiqiy izchillikda bayon etib, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llasa.
11–15 ball	Savolning asosiy mazmunini to‘g‘ri ochib bersa, tushuncha va nazariyalarni asosan to‘g‘ri izohlasa, biroq ayrim muhim jihatlar yoki o‘zaro bog‘liqliklarni to‘liq yoritmasa, tahlil, dalil va mavzuga mos amaliy misollar keltirsa, ammo ularning asoslanishida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, mustaqil fikr yuritib, mantiqiy xulosa bildirsa hamda ayrim xatolar javobning asosiy mazmunini buzmasa.
6–10 ball	Savol mazmunini qisman ochib bersa, asosiy tushunchalarning ayrimlarini to‘g‘ri izohlasa, biroq muhim ma’lumotlarni tushirib qoldirsa yoki ayrim mazmuniy xatolarga yo‘l qo‘ysa, javobi asosan ma’lumotlarni takrorlashdan iborat bo‘lib, tahlil va dalillash yetarli bo‘lmasa, amaliy misollar keltirsa-da, ularning nazariya bilan bog‘liqligi zaif bo‘lsa, mustaqil mulohaza yuritib, qisman asoslangan xulosalar chiqarsa.
1–5 ball	Mavzuga oid ayrim to‘g‘ri ma’lumotlarni keltirsa, biroq savolning asosiy mohiyatini to‘liq ochib bera olmasa, muhim tushuncha va nazariyalarni chalkashtirsa, dalillar va misollar yetarli bo‘lmasa yoki mavzuga mos kelmasa, nazariy bilimlarni pedagogik amaliyot bilan bog‘lashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelsa hamda mustaqil xulosalari asoslanmagan yoki mavjud bo‘lmasa.
0 ball	Javob yozilmagan bo‘lsa yoki matnda savolga daxldor, to‘g‘ri va baholash mumkin bo‘lgan mazmun mavjud bo‘lmasa.